

UDK: 81'22:821.512.133

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA TIL  
BELGISINING SEMIOTIK TABIATI**

**Abduraimova Shohista Bozor qizi,**

*University of Business and Science (Toshkent filali) Lingvistika yo‘nalishi*

*1- kurs magistranti*

*shohistaabduraimova32@gmail.com*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida til belgilarining semiotik tabiati lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Semiotika, til belgisi, lingvistik tahlil, badiiy matn, kommunikativ funksiya, milliy mentalitet, pragmatika.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется семиотическая природа языкового знака в повести О‘tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari».*

***Ключевые слова:** Семиотика, языковой знак, художественный текст, коммуникация, лингвистический анализ.*

***Abstract.** This article analyzes the semiotic nature of linguistic signs in the story Dunyoning ishlari by Uzbek writer O‘tkir Hoshimov.*

***Key words:** Semiotics. Linguistic sign. Literary text. Communication. Linguistic analysis.*

**Kirish.** Til inson tafakkuri va jamiyat hayotining eng muhim unsurlaridan biri bo‘lib, u murakkab belgilar tizimi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Til birliklarini belgi sifatida o‘rganish semiotika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Semiotika belgilar tizimi, ularning tuzilishi hamda ma‘no hosil qilish mexanizmlarini o‘rganadi. Til belgisi nazariyasi XX asr tilshunosligida muhim o‘rin egallaydi. Mashhur tilshunos Ferdinand de Saussure tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, til belgisi ikki komponentdan – belgilovchi va belgilanuvchidan iborat ekanini ta’kidlaydi. Belgilovchi til birliklarining moddiy shaklini ifodalasa, belgilanuvchi esa mazkur birliklar orqali anglashiladigan tushunchani bildiradi. Amerikalik olim Charles Sanders Peirce belgilarni ikon, indeks va simvol kabi turlarga ajratadi. Bu tasnif badiiy matnda til birliklarining semantik qatlamlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Semiotika (yun. semiotikos — belgilar haqidagi ta’limot), semiologiya 1) axborot, ma’lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi; 2) u yoki bu obyektning bir ma’nodagi Semiotika nuqtai nazaridan o‘rganiladigan tizimi (mas, muayyan film yoki badiiy asar Semiotikasi, muayyan xalqdagi muomala-murojaat Semiotika si va boshqalar). Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Belgi o‘zi shartli ravishda aloqador bo‘lgan narsa haqida muayyan jamiyat

vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o'rganadigan tildir. Belgi tizimlari tabiiy (inson tili, xayvonlarning belgi tizimlari) va sun'iy (yasama, sun'iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo'ladi. Belgilar va belgi tizimlarini o'rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o'zaro ajratiladi. Sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo'llanadigan til birliklari o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarni o'rganadi. Semantika belgilarning ular ifodalaydigan ob'yektlar bilan munosabatini o'rganadi. Pragmatika esa belgilar, ular ifodalaydigan ob'yektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi [ 1.1] Semiotika ning “belgilar haqidagi fan” sifatida umumiy kridalari, xususiyatlari dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.Semiotika Pirs va shveysariyalik tilshunos F. de Sossyur asarlarida bir vaqtning o'zida va mustaqil ravishda qayd etilgan. Ushbu tushuncha uchun Ch.Semiotika Pirs "Semiotika " terminini. F. de Sossyur esa "semiologiya" terminini, qo'llagan. Semiotika g'oyasi keyinchalik amerikalik faylasuf Ch. U. Morris tomonidan tartibga solinib rivojlantirildi. Bir qancha yevropa va rus olimlari ham Semiotika ning rivojiga hissa qo'shganlar. Falsafiy fanlardan hisoblanadigan umumiy Semiotika va maxsus semiotik fanlar, jumladan, til Semiotika si (glottosemiotika yoki lingvosemiotika) farqlanadi. Semiotika taraqqiyoti funksional struktur tilshunoslik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimov asarlari xalqona ruh, samimiy nutq va hayotiy falsafa bilan ajralib turadi. Uning Dunyoning ishlari qissasi insoniy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar hamda milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim badiiy asarlardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur qissani lingvistik-semiotik nuqtai nazardan tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi — qissada qo'llangan til belgilarining semiotik xususiyatlarini hamda ularning kommunikativ, emotsional va madaniy funksiyalarini aniqlashdan iborat. Til belgisi va uning lingvistik-semiotik mohiyati. Til belgisi lingvistik tizimning asosiy elementi hisoblanadi. [ 2.1 ] Saussure nazariyasiga ko'ra, har bir til birligi ma'lum bir ma'noni ifodalovchi belgidir. Bu belgi ikki tomonlama tuzilishga ega bo'lib, uning moddiy tomoni tovush yoki yozuv shaklida namoyon bo'ladi, semantik tomoni esa muayyan tushunchani anglatadi. Lingvistik semiotika til birliklarini nafaqat ma'no ifodalovchi vosita, balki ijtimoiy-madaniy kod sifatida ham o'rganadi. Badiiy matnda til belgisi ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'lib, u lug'aviy ma'no bilan bir qatorda emotsional, madaniy va pragmatik mazmuni ham ifodalaydi. Yuri Lotman badiiy matnni ikkilamchi modellovchi tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, badiiy matnda har bir til birligi qo'shimcha semantik yuklamaga ega bo'ladi. Natijada oddiy nutq birliklari ham badiiy kontekstda yangi ma'no kasb etadi.

“Dunyoning ishlari” qissasida til belgilarining kommunikativ xususiyatlari: Qissada qahramonlarning nutqi ularning ijtimoiy mavqei, ruhiy holati va o‘zaro munosabatlarini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa ona obrazi bilan bog‘liq nutq birliklari semantik va emotsional jihatdan boy ma’noga ega. [ 2.3]

Sitata 1 – Ona murojaati: “Bolam, odamlar bilan yaxshi bo‘l. Odamdan yaxshilik qoladi.” Bu ibora ona mehrini va xalqona axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi. Peirce nazariyasiga ko‘ra, bu simvolik belgi sifatida talqin qilinadi. Sitata 2 – Xalqona ibora: “Dunyoning ishlari shunaqa ekan-da, bolam.” Bu ibora hayotning murakkabligi va inson taqdirining turli sinovlarini aks ettiruvchi ramziy belgi hisoblanadi.

Sitata 3 – Mehr va hissiy munosabat: “Jon bolam, sen sog‘ bo‘lsang bo‘ldi.” Bu ibora ona va farzand o‘rtasidagi samimiy munosabatni, e otsional semantik yuklamani ifodalaydi.

Sitata 4 – Milliy qadriyat: “Ona bor uyda baraka bor.” Bu ibora oilaviy qadriyat va ona obrazini aks ettiruvchi ramziy belgidir. Ushbu sitatalar orqali qissadagi til birliklari nafaqat kommunikativ, balki emotsional, madaniy va pragmatik funksiyani ham bajaradi. Milliy mentalitetni ifodalovchi til belgilarining xususiyatlari: Qissada xalqona iboralar va kundalik nutq elementlari keng qo‘llangan [ 3.1].

Ular milliy madaniyatni aks ettiruvchi muhim semiotik belgilar hisoblanadi. Peirce tasnifiga ko‘ra, bunday birliklar simvolik belgilar sifatida qabul qilinadi, chunki ularning ma’nosi jamiyat tomonidan shakllangan madaniy kelishuvga asoslangan. Badiiy matnda til belgilarining estetik funksiyasi Badiiy matnda til belgilarining estetik funksiyasi ham muhimdir [ 4.1].

Adib O‘. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida metafora, tashbeh, kinoya kabi badiiy vositalar hamda tasviriy ifodalar qo‘llanib, badiiy obrazlarni yanada jonli tasvirlashga xizmat qilaganligi hamda kitobxonda bu asar orqali hozirgi o‘zbek adabiy tilimizning o‘ziga xususiyatlaridan biri hisoblangan til belgisining semiotik xususiyati (tabiati) qissa tarkibida kelgan ko‘plab hikoyalar orqali kelganligining o‘zi ham qiziq hodisadir desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz, albatta. Nutq birliklari qahramonlarning ruhiy olamini ochib beradi va o‘quvchiga chuqurroq ta’sir ko‘rsatadi.


Xulosa o‘rnida shuni aytmog‘imiz lozimki, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, o‘zbek xalqining yirik adabi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub bo‘lgan “Dunyoning ishlari” qissasida til belgisi ko‘p qatlamli semiotik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Misollar orqali anglashiladiki, nutq birliklari qahramonlarning ruhiy holatini, milliy madaniyatni aks ettiradi va badiiy obrazlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Til belgilarining kommunikativ, semantik va estetik funksiyalari o‘zaro uyg‘unlashib, asarning badiiy qimmatini oshirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Saussure F. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent: Fan. Peirce C. S. Collected Papers. – Cambridge: Harvard University Press.
2. Lotman Yu. M. Semiosfera. – Moskva. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq.
3. Nurmonov A. Til nazariyasi. – Toshkent. Safarov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent.
5. Yo‘ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent.
6. Rasulov R. Lingvistik tahlil metodlari. – Toshkent.

**Internet saytlari:**

1. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. [www.til va adabiyot ta'limi.uz](http://www.til va adabiyot ta'limi.uz)



UNIVERSITY  
OF BUSINESS  
AND SCIENCE